

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI

FILOLOGIYA fakulteti

O'ZBEK FILOLOGIYASI kafedrası

KURS ISHI

MAVZU: Muqimiy she'riyatining janr xususiyatlari

Bajargan:

Gaipova Zaynabjon

Qabul qilgan:

Duyserboyev Olim

Nukus – 2013 y

Muqimiy she'riyatining janr xususiyatlari

Reja:

I.Kirish.

II.Asosiy qism:

- a) Muqimiy she'riyati janrlari
- b) Muqimiy murabbalari xususida
- d) Muqimiy ijodida muxammas janri
- e) Muqimiyning g'azallari poetikasi
- f) Muqimiyning masnaviy janrida yaratgan hajviyalari
- g) Muqimiyning "Sayohatnoma " janri

III.Xulosa

IV Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida ravnaq topgan o'zbek demokratik adabiyotining eng ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Qo'qonlik adib Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'z ijodi bilan Chiqish adabiyotining eng yaxshi ananalarini davom ettirdi, ayni paytda, axborotlar oqimining kuchayishi hamda ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishiga munosib hissa qo'shdi. Uning she'rlari hayotlik chogidayoq Turkistonning turli shaharlariga yoyilgan, shoirlar ularga muxammaslar bog'lar, xonandalar qo'shiq qilib aytar edilar. Muqimiy o'z ijodiy maktabiga ega shoir edi. Muqimiy XIX asr o'zbek adabiyotining eng mashhur vakillaridan. U o'z ijodi bilan jahon adabiyotshunosligida "devon adabiyoti" deb nomlangan Sharq adabiyotidagi eng yaxshi ananalarini davom ettirdi.

Ayni paytda, rus istilosi tufayli ijtimoiy hayotda kechayotgan o'zgarishlarni adabiyotga olib kirib, uning yangilanishida o'zining munosib hissasini qo'shdi.

Demokrat shoir Muqimiy hayot chog'laridayoq uning faoliyati bilan qiziquvchilar, uni o'rganuvchilar yetishib chiqqan, shoir haqida turli qarashlar tug'ilgan edi. Davr o'tishi bilan bu qarashlar o'zgardi, yangi tus oladi, o'zgacha fikrlar ham paydo bo'ladi, qisqosi, Muqimiy ijodini o'rganish masalasining o'tmishi, tarixi tug'iladi. Muqimiy hayot vaqtidayoq uning ijodiy faoliyatiga bo'lgan turli munosabatlar, Muqimiy atrofidagi fikrlar kurashi uning vafotidan so'ng yanada kuchaydi, turli tarixiy sharoitlarda turlicha shakilda davom etadi.

1907-yilda Muqimiy vafotidan to'rt yil keyin Nikoloy Ostroumov Toshkenda "Devoniy Muqimiy" nomi kichik bir to'plam nashr ettirdi. To'plamning oxirida N.Ostroumov tamonidan yozilgan kichik moqola ham ilova qilingan bo'lib, bu maqolada avtor Muqimiyning tarjimaiyoli haqida ma'lumot beradi, uning shaxsiyati va ijodiy faoliyatini baholaydi.

Ostroumov Muqimiyni “umrini qalandarona o’tkarmoqni lozim” topib , tarki dunyo qilgan , darveshlik tariqatini qabul etgan kishi , deb talqin qiladi. Ostroumov o’z xarakteristikasining oxirida Muqimiy kunduzlari din ahllari hizmatida bo’lar va madrasa hujrasida o’tirar , kechalari esa qur’on o’qish va she’r yozish bilan shug’ullanar edi , deb ko’rsatadi . Shunday qilib , Ostroumov Muqimiyni bu dunyodan boz kechgan , tarki dunyo qilgan dindor , fanotik bir shaxs qilib ko’rsatadi.

1910-yilda Toshkentda Porsev litografiyasida “Devoni Muqimiy maa hajviyot “ nomi bilan Muqimiy asarlarining to’plami nashr qildi . 1912-yilda Toshkentda Orifjonov tipolitografiyasida Muqimiy asarlarining ikkinchi to’plami nashr qilindi . Bu har ikki to’plamda ham Muqimiy ijodiy qiyofasin yoritishda N.Ostroumov konsepsiyasi davom ettrildi.

Muqimiyning adabiy merosini to’plash va nashr qilish sohasida shoir G’afur G’ulom tamonidan tuzilib, 1938-yilda Toshkentda nashr etilgan “Muqimiy bayoziy“ nomli to’plamli katta ahamiyatga ega bo’ladi. “Bayoz” da shoirning 800 misradan iborat 27 she’ri berilgan bo’lib , ular janr pirinsipiga qarab joylashtirilgan (satira , yumor , lirika) va ularga zaruriy izohlar , lug’atlar berilgan . Shuningdek , bu davrda Muqimiy asarlarining to’plami , uning ijodiga doir bir qancha ilmiy -ommabop maqolalar nashr etilib , shoir ijodini bundan keyin chuqur o’rzanish uchun keng imkoniyat ochildi. Muqimiy ijodiga oid problematic masalarni qo’zg’ash va yoritish jihatidan Oybekning “ Muqimiy asarlarida sotsial tiplar “ sarlavhali maqolasi diqqatga sazovar. 1950-yilda Moskva davlat badiiy adabiyot nashriyotida Muqimiyning “ Lirika va satira “ nomli ikkinchi to’plami rus tilida chiqarildiki, bu to’plam ham rus kutubxonalarini Muqimiy ijodi bilan tanishtirish jihatidan katta ahamiyatga ega bo’ldi. Keyingi yillarda Muqimiy ijodiga bag’ishlab chiqarilgan kitoblar: H.Yoqubovning “ O’zbek demokrat shoiri Muqimiy “ (1953) , A.Olimjonovning “ Muhammad Amin Muqimiy” (1953) H. Rozzoqning “ Muqimiy va Zavqiy” (1955) nomli kitoblari,

hamda “Furqat va Muqimiy “ (1958) nomli maqolalar to’plami, Muqimiy “Tanlangan asarlar“ ining (1958) rus va o’zbek tillaridagi nashri , Muqimiyning ikki tomlik asarlar to’plami (1960) bunga yaqqol misol bo’la oladi . 1970-yilda G’afur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyotida “Muqimiy. Xayoti va ijodi” nomli birinchi marta monografiya nashr etildi.

Muqimiy ijodini o’rganishda professor G’ulom Karimov (1909-1991) ning xizmatlari katta bo’ldi. G’.Karimov- Muqimiyshunoslik maktabiga asos solgan olim. Uning bu boradagi ilk maqolasi “Muqimiyning hayoti va ijodini o’rganish tarixidan “ (1957) oliy o’quv yurtlari talabalari uchun yozilgan “o’zbek adabiyoti tarixi “ (3-kitob) idagi (1966, 1975, 1987) Muqimiyga bag’ishlangan tadqiqotlari, xususan, 1962 yili yoqlagan “O’zbek demokrat shoiri Muqimiy va uning davri adabiyoti “ doktorlik dissertasiyasi, 1970 yili nashr etgan “Muqimiy hayoti va ijodi “ monografiyasi muqimiyshunoslik ilimining sara namunalaridir. Nihoyat , Muqimiy asarlarining shu kungacha amalga oshirilgan o’zbek , rus , va boshqa tillardagi nashrining aksariyati professor G’.Karimov nomi bilan bog’liq .Muqimiyshunoslik istiqlool munosabati bilan yangi bosqichga ko’tarildi . Shoir bosib o’tgan murakkab ijodiy yo’l va uning sarmazmun adabiy merosini mustaqillik , Millat va Vatan manfaatlari nuqtai nazaridan ko’zdan kechirish va xulosalar chiqarishga ehtiyoj bor . Bu borada professor G’. Karimov izdoshlari samarali ish olib bormoqdalar .

Muqimiy-lirik shoir bilan Muqimiy-hajvigo’y tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog’langan bo’lib, biri ikkinchisini to’ldiradi. Faqat farqi shundaki, lirik shoir Muqimiy bir xil adabiy usullar ishlatgan, oliyjanob va samimiy, ijobiy obrazlar yaratgan bo’lsa, endi u satirik shoir sifatida boshqacha adabiy usullar qo’llab, tanqidiy-satirik obrazlar yaratdi, yovuzlarning kulgili, jirkanch tashqi qiyofalarini ochib tashladi. Buni biz uning har xil janrlarda yaratgan she’rlari orqali kuzatishimiz mumkin.

Muqimiy she'riyati janrlari

Muqimiy o'z ijodi davomida bir qancha janrlardan unumli foydalandi. Ayniqsa, u sayohatnoma janrini mustaqil janr darajasiga ko'tardi, shu bilan birga g'azal, murabba, muxammas, masnaviy janrlarida ham ijod qildi.

Muqimiy she'r yozganda uning jarangdorligi, musiqiyligini ta'min etadigan vazn, qofiya, radif masalariga katta e'tibor beradi. U aruz vaznining deyarli barcha bahrlaridan to'la xabardor bo'lgan. Muqimiy she'rlari, asosan aruzda, uning eng yengil, o'ynoqi vaznlarida yozilgan bo'lib, bu hol she'rning emotsional kuchini oshirgan.

Muqimiyning bizgacha yetib kelgan ijodiy me'rosini 10 ming misra atrofida tahmin qiladilar. Ular asosan lirika va hajviyotdan iborat.

Muqimiy tabiatan hozirjavob kishi edi. Ko'plab zamondoshlari singari o'zbek va tojik tilida baravar yoza olar edi. Muqimiyning ko'pgina she'rlari o'zining yozilish tarixiga ega. Ulardan ayrimlarini tarjimai holida ko'rib o'tdik.

Muqimiyning juda ko'p g'azallari uning tirikligidayoq qo'shiq qilib kuylangan. Juda ko'p taniqli san'atkorlar o'z hayotlarini Muqimiy ijodi bilan bog'laganlar. Shoir she'rlarida Mamajon Makay, Nizomxon, Farzincha, Ismoil naychi ismlari uchrab qoladi.

Ularga bag'ishlangan baytlar, she'rlar ham bor. Bular o'sha davrdagi mashhur san'atkorlarning ismlari, laqablari. Muqimiyning ular bilan bunday yaqin aloqasi bejis emas. Shoir g'azallari musiqiy, ohangdor edi, xaridori ko'p edi.

Bu she'rlarning mavzui aksariyat an'anaviy, yor haqida. Uning husni, ya'ni qoshi, ko'zi, yuzi, sochi, qaddi-qomati ta'rifi bag'ishlangan.

Oshiq shoir visoldan quvonadi, hijrondan iztirob chekadi. Lekin har qanday holda ham yorning husnu davlatiga rivoj tilaydi. Uning mehr va shafqatidan umidvor. Ammo u yor qanchalik go'zal bo'lsa, shunchalik bevafo, jafokor. Shu sababli, shoir she'rlarida quvonchdan hasrat ko'p.

Tiyy'ing mening qonimdadur, zulfig giribonimdadur,
Yuz ming alam jonimdadur, man mubtalo qayda boray?!

Ishqiy an'anaviy she'rlar zamonga moslanib bordi. Masalan, Muqimiy va uning zamonasida "Surating" radifli she'rlar paydo bo'ldi. Bu, birinchi navbatda, fotografiyaning hayotga kirib kelishi bilan izohlanadi.

Muqimiy me'rosining katta qismini g'azal, murabba va muxammaslar tashkil etadi. Ma'rifatchi shoir she'rlarida go'zal insoniy tuyg'ular yoqimli va tushunarlin ifodalangani uchun xalq orasida tez yoyilardi.

Muqimiy o'z ijodiy faoliyati davomida bir qancha go'zal she'rlar, hajviyalar yaratdi. U o'z she'rlarini ham an'anaviy ham yangicha usulda ya'ni mumtoz adabiyotda o'sha paytlarda an'ana bo'lgan aruz vaznida g'azallar yaratish bilan birgalikda murabbalar ham ijod qildi.

Adabiyotimizda tarixda Muqimiy murabba janrining ustasi ekanligi bilan ham mashhurdir. Muqimiy poeziyasining bu turida juda ko'p chiroyli namunalar yaratdi.

Muqimiy murabballari xususida

Muqimiy lirikasining asosini murabba mavzusi tashkil etadi. Bu mavzu faqat klassik adabiyotimizda yoxud Sharq poeziyasidagina emas, balki jahon adabiyotida ham juda ko'p ishlangan va unda qanchadan-qancha shoh asarlar yaratilgan. Bu mavzu ulug' Alisher Navoiyga XV asrda qanday bitmas – tunganmas ma'no baxsh etgan bo'lsa, oradan qariyb besh asr o'tganidan so'ng ham Muqimiyga shunday ilhom manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki adabiyotining asosiy ob'yekti insondir. Insonni muhabbatsiz tasavvur qilish mumkin emas, muhabbat inson ma'naviy hayotining ajralmas qismidir. Inson sotsial kategoriyadir. Shuning uchun uning muhabbati sotsial, konkret tarixiy mazmunga ega bo'ladi. Muqimiy o'z lirikasida keng ma'nodagi

muhabbatni, muhabbat alangasida kuygan insonni kuylaydi. Bu inson istaklari, armonlari, kurashlari, kechinmarali, sevinch va alamlari shoir she'rlarining tub mohiyatini tashkil etadi.

Muqimiy o'z murabbalarini takrorlab turuvchi misralar bilan ziynatlanganda, ikki xil badiiy usuldan foydalanadi.

Birinchi usul shuki, murabbaning har bandidagi to'rtinchi misrada bir mazmun takrorlanadi, bu mantiqiy urg'u orqali asar go'yasi kuchaytiriladi.

Ikkinchi usulda esa murabbadagi to'rtinchi misra to'g'ridan – to'g'ri takrorlanaveradi. Bu usulning eng go'zal namunasi “Ko'nglim sandadur” murabbasida uchraydi.

Muqimiy adabiyotimizda mavjud lirik janrlardan murabbaga alohida e'tibor berdi. Ma'lumki, murabba boshqa janrlardan, avvalo, vazn va qofiyasiga ko'ra farqlanadi. Ruboiy faqat hazaj bahridagina yozilsa, murabba uchun bunday cheklanish yo'q.

Ruboiy, tuyuq mustaqil to'rtliklardir, murabbada esa bir necha to'rtliklar qo'shilishidan yaxlit asar bo'ladi va ular *a a a a*, *b b b a*, *v v v a* shaklida qofiyalanadilar. So'nggi bandeda taxallus bo'ladi.

Muqimiy murabbalari, uning ko'pchilik g'azal va muxammaslari kabi, o'zbek xalq kuylariga moslab yozilgan. Ular o'zining sodda ifodalarida chuqur mazmuni anglatishi, ravonligi, asosan, xalq qalbidagi nozik tuyg'ularini tarannum etganligi uchun xalq hayotiga singib ketgan.

Bizga Muqimiyning 21 murabbasi ma'lum bo'lib, ular o'zining g'oyaviy va badiiy xususiyatlari bilan alohida diqqatga sazovordir. Muqimiy murabbalariga xos bo'lgan xususiyatlarni: chuqur mazmundorlik, ravonlik, sho'x, o'ynoqi vazn va samimiylilikni ko'rsatish uchun “Ey chehrasi tobonim” asarini eslash kifoya. Muqimiy ijodida bunday she'rlar ko'p. Uning “Ko'nglim sandadur”, “Ko'rdim yuzingni”, “Yodimga tushdi”, “Ajab shior aylading” murabbalari o'zining kompozitsion tugallanganligi, ifodalaridagi soddaligi va samimiyligi, mazmunining chuqurligi va ravshanligi bilan mumtoz

poeziyamizning eng yaxshi namunalaridandir. Murabbalarining deyarli hammasi ishqiy temada yozilgan. Lekin bu tanish mavzu murabbalarida shu qadar ustalik, shu qadar yuksak mahorat bilan ishlanganki, natijada mo'jizakor san'at asari yuzaga kelgan. Mazmunan tugal, shaklan kam-ko'stsiz murabbalarining bir namunasi sifatida **“Ko'nglim sandadur”** murabbasini olaylik:

Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Mehring o'ti nogah tushdi jonlarga,
Parvoyim yo'q zarra xonu monlarga,
Lola yaglig' to'lib bag'rim qonlarga,
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.
Ertayu kech fikru zikrim xayoling,
Bir so'ramading: “Nalar kechdi ahvoling?”
Eslearimga tushib shirin maqoling,
O'zim har joydaman, ko'nglim sandadur.

Ko'rib o'tganimizdek Muqimiy murabba janrida mahorat bilan ijod qilib go'zal namunalar yaratgan

Muqimiy ijodida muxammas janri

Muqimiy ijodida muhammaslarini uchratishimiz mumkin. Uning xalq temasiga bag'ishlangan asarlarining mumtoz namunasi “Hapalak qishlog'i to'g'risida” gi muhammasidir. Muqimiy bu muhammasni XIX asrning I yarimida yashab ijod etgan Farg'onalik shoir Maxmur g'azaliga bog'lash – taxmis yo'li bilan yaratgan. Muqimiy muhammasida Maxmur yo'lini

davom ettirib , xalq hayotining tipik manzarasini , ustalik bilan chizib berdi . Hapalak qishlog'i juda ayanchli ahvolda tasvirlaydi .

XIX asr adabiyotiga oid asarlarida ham behad zulum natijasida o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan xalq to'g'risidagi ma'lumotlar uchraydi . Shularning bir Muqimiy muhammasidir :

Ko'chti xalqi yo'pinib ko'hna uvoda to'nini ,
Charhdin o'tkarishib ohu fig'onu unini ,
Solmasun dushmani ham boshig'a kelgan kunini .
Kecha nogohon eshitib shuhrati tillo pulini ,
Hapalak qo'rqishidin uchti misoli kapalak .

“Hapalak qishlog'i to'g'risida “ muxammasida tasvirlangan bu manzara haqoniy va realistik harakterga ega bo'lib , xalq hayotining asl mohiyatini anglashga yordam beradi . Muxammasda xalq hayotining xarakterli , tipik lavhasi – manzarasi bor .

Muqimiyning yana bir muxammasini olib ko'raylik:

Ketardim bosh olib, gar bo'lsa erdi, ro'zg'orim yo'q,
Netay bezodu to'sha¹ yo'lga yurmakka madorim yo'q.
Turarga qolmadi toqat, ko'ngulda ixtiyorim yo'q,
O'zingdan o'zga, yo rab, rahbari laylu nahorim yo'q,
Hidoyat aylagaymu deb Muqiming intizor o'lmish.

Yana bir ma'lumot. Moskvadagi jiyani R.Do'stmatovga xatidan:

“Bechorachilik.Podsholik madrasalarimizning vaqfini olib qo'ygan,hech bir
tarafdan daromad – dahl yo'q, qashshoqlig' ”.

¹ **bezodu to'sha** – sarmoyasiz, pul-anjom shyosiz.

Ilgari madrasalarning sarfu harajatini ta'minlab turish uchun vaqf (yer, mulk) ajratilgan. Rusiya Turkistonni bosib olgach, shularni olib qo'ydi. Madrasalarning ta'minoti buzilib, birin-ketin buzila boshladi. Ayniqsa, madrasalarda istiqomat qiluvchilar qiyin kunda qoldilar. Muqimiyning o'z taqdiri va tirikchiligidan zorlanish sabablaridan biri - shu.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, adabiy asarning xalqchil bo'lishi uchun, albatta, u keng mehnatkash xalq hayotidan olinib yozilgan bo'lishi shart emas. Lekin xalq hayotini ana shu xalq manfaatlarini ko'zlab tasvirlashga bag'ishlangan har qanday asar xalqchil asardir. Muqimiy xalqona yozilgan hajviyalarinin asosan muxammas janrida yozdi. Uning "Dar mardumi Oqjar ba tariqwi muxammas" asarida Qo'qon yaqinidagi Oqjarda Sirdaryo ustiga qurilgan paromdagi yo'lovchilar – xalq mavzu qilib olingan. Muqimiy tasvirida, yo'lovchi xalq kambag'al, qashhoq, parom haqini to'lolmaydigan, "kissasida ikki puli" ham bo'lmagan "juldir to'nli" kishilar edi:

Kema vajhini demaslarki, beribon qutulay,
Tarzi bir hiyla qilib derki, yukimni yashuray,
Bilsa sarkori, "pochcha!" deb etagiga osilay,
"Ikki pul ber yana buyruqqa qarab!" desa, degay:
"Na qilursan, chaqamiz yo'q, mana o'ldur – o'ldur!"

Ushbu muxammas *a a a a b* tarzida qofiyalangan bo'lib unda shoir xalqning qashshoqligini ko'radi, lekin u qashshoqlikni keltirib chiqarayotgan sharoitni – talovchilarni, ekspluatatorlarni yetarli darajada ko'rsatmaydi. Muxammasda xalq hayotining xarakterli, tipik lavhasi – manzarasi bor, lekin shu manzaraning sababchisi bo'lgan ijtimoiy muhit, unga qarshi xalqning kurashi, nafrati hali ko'rinmaydi. Shuningdek, shoirning "juldir to'nli"larga bo'lgan munosabati ham asarda ifodalangan.

Muqimiyning g'azallari poetikasi

Muqimiy murabba, muxammas janrlaridan tashqari bilan birga g'azal janrida ham barakali ijod qildi. U g'azallarida o'sha davr turmush tarsi, ba'zan esa hayot hodisalarini reallikda ko'rsatib berdi.

Shoirning ayrim g'azallarida uning hayoti bilan bog'liq lavhalar aks etgan.

Yor ila ne xush zamoni ro'zg'orim bor edi,

Podsholik davlatidin hamki orim bor edi.

Matla'si bilan boshlanadigan g'azal shu jumladan shoirning o'z hayoti haqida yozilgandir. Ushbu g'azalni olib qaraydigan bo'lsak, she'rda boshdan-oyoq yor bilan kechgan kunlarni qo'msash hukmron. Bu, ehtimol, ma'shuqadur. Ehtimol, biror do'stdir. Balki oilasi-xotini Sanambibi va o'g'li Akbarxo'ja bilan birga kechgan kunlaridir.

Shoirning yana bir she'rini misol tariqasida olib qaraylik:

Podshoh yo'qlatsalar nogoh gado deb axtaring,

Tutmang hargiz nomimni, baxti qaro deb axtaring,-

Matlai bilan boshlanadi. Undan Muqimiyning qandaydir bir "ish" da ayblanib, ta'qib etilgani anglashiladi. Umuman olganda, shoirning katta-kichik amaldorlar bilan aloqasi yaxshi bo'lgan emas. Muqimiy klassik poeziyamizda keng tarqalgan "shikoyat motivi" ning mashhur namunalarini yaratdi. Bu motiv Muqimiy ijodida "tole', baxt" tushunchalari orqali ifodalanadi. Shoir bu tushunchalar orqali o'zining mavjud tartiblardan norozi ekanligini, hukmdorlarning adolatsizligini ifodalaydi. Shaxsiy hayotidagi omadsizlik, hukumat xizmatida chiqishib ishlab keta olmasligi, oqibatda turmushining nochor bir holga tushishi, Hazrat madrasasida g'aribona va so'qqabosh hayot kechirishga majbur bo'lishi "**Toleim**" she'rda ta'sirchan aks ettirilgan:

Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleim,
Vojgun¹ dur imtihon qildimki, aksar toleim,
Yuz tarafdin yetkurub, gardi qudurat² zangi g'am,
Aylagay oinai ta'bim mukaddar³ toleim.
Har necha qilsam tavallo – zor qilmas iltifot,
Ro'ygardon⁴ teskari, toboro badtar toleim.
Ro'gorim tiyra, iqbolim zabun,baxtim qaro,
Bo'lsa ravshan, bormukin tadbiri diygar toleim?
Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmong'a salom,
Dafa'tan ikki qulog'ini qilur kar, toleim.

Muqimiy so'zlariga zamondosh bastakorlar tomonidan ko'plab kuylar yaratilgan. Muqimiyning o'zi ham san'at ahillari – xalq hofizlari , bastakorlari bilan do'stona aloqada bo'lgan ' uning she'rlari juda erta XIX asrning 80 – yillaridayoq xalq o'rtasida keng tarqalgan edi . Bu haqiqatni o'sha davrdagi rasmiy manbalar ham tasdiqlaydi “ T.v g “ning sonlaridan birida Toshkentda o'tkazilgan katta bir yig'in to'g'risida habar bosilar ekan ‘ unda xalq hofizlari tomonidan ijro etilgan ashulalar to'g'risida to'xtalib , ashula tekstlari to'liq keltiriladi shu jumladan Muqimiyning eng sara lirik she'rlaridan biri “Navbahor”dir.”Navbahor” – yangi bahor degani.U – uyg'onish fasli. Borliqning, mavjudotning eng sara fasli.U tiriklik nishonasui,tabiatning uzoq, rutubatli qishdan keyingi qayta jonlanishi. Ana, qorlar ko'tarilib, yerning issiq nafasi tuproqlar orasidan ko'kka o'rlaydi.

¹ **vojgun** – teskari.

² **kudurat** – g'am – g'ussa.

³ **mukaddar** – dog'.

⁴ **ro'ygardon** – yuz o'girish

Qushlar chug'uri tinmaydi, qaldirg'ochlar tikka ko'tariladi. Chor atrof yashillik bilan qoplanadi. Shoir bu manzaradan tunganmas zavq – shavq oladi. Tiriklikning naqadar ulug' ne'mat ekanligini anglaydi. Unda hayotga so'ngsiz ishtiyoq uyg'onadi. Eng muhimi, chinakam umr odamlardan uzoqda kechiriladigan uzlatnishinlik emas, do'stlar bilan to'lib-toshib, yonib-jo'shib yashamoq ekan.

Bayti bilan boshlangan sho'x, quvnoq ruhli “ Navbahor “ g'azali bilan ijro etilgan kuy tilga olinadi :

Navbahor! Ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar!

Suhbat aylaylik, kelinglar, jo'ralar, o'rtoqlar!

Xush bu mahfil¹ da tiriklik ulfatu ahbob ila,

O'ynashib, gohe tabiatni qielaylik chog'lar!...

Lekin, afsuski, zamona – yomonniki. Aqlli, doni kishilar (ahli tamiz) oyoq ostida, bulbul o'rnini qarg'a (zog') lar olgan:

Hayfkim, ahlin tamiz ushbu mahalda xor ekan,

Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.

Shoir kutilmaganda gapni mana shunday jamiyat hayotiga buradi va unga o'z munosabatini bildiradi. Agar zamona adolatli bo'lsa, har kim o'ziga munosib joyda bo'lmogi lozim edi. Holbuki unday emas. Shoirning e'tirozi shunda.

Ma'lum ma'noda Muqimiy lirikasini “inson psixologiyasining qomusi “ deb atash mumkin. Ulug' Alisher Navoiy o'z lirikasini qanday asoslar bilan “ Xazoyin ul-maoniy ” (“ Ma'nolar xazinasini “) deb atagan bo'lsa, xuddi shu asoslar bilan Muqimiy lirikasini ham “ inson kechinmalarining xazinasini ” deyish mumkin.

¹ **mahfil** – bazm, anjuman.

Muqimiy o'z lirikasining "muhabbat qo'shig'i" ekanligini qayta-qayta ta'kidlaydi :

O'zimda , garchikim , had yo'q edi , alhamdulillahkim ,
Muborak qo'ynig'a jo topti ash'orim mani oni .

Muqimiy so'zidan bo'yi muhabbat kelgay , ey ahhob ,
Tarannum qilsa mahfiyllarda hofizlarni xushxoni .

Bu ijodiy – estetik programma ikkinchi o'rinda shunday ifoda qilinadi:

Qilma she'rimga tamasxur, tarki odatdur mahol ,
Xubro'larg'a, Muqimiy , man g'azalxon, oxunim .

Chindan ham , hayot , inson , muhabbat haqida kuylash Muqimiy ijodining tark etib bo'lmaydigan " odati " ga aylangan bo'lib , uning mohiyatini tashkil qilar edi .

Muqimiy muhabbat mavzusida ko'p dilrabo she'rlar yozdi. Unda insoniy kechinmaning turli holatlari tasvirlanadi . Muqimiy ba'zan shunday zo'r ijodiy mahorat ko'rsatadiki , so'z san'atining namunasi bo'lgan bu she'rlarni o'qiganda , kishining ko'zi o'ngida jonli manzara , sehrli rassom qalami bilan chizilgan ajoyib lavha namoyan bo'ldi . Shoir hayolida yaratilgan lavha jonli va qonli hayot manzarasiga aylanib ketadi . Muqimiy lirikasining tili uslubi, badiiy vositalari haqida fikr yuritilganda shuni ta'kidlab o'tish zarurki, Muqimiy o'z ijodida ilg'or g'oyalarni targ'ib qilib, realistik xalqchil poeziya yaratgan ekan, shu yangi ruh va g'oyaga muvofiq keladigan yangi uslub, yangi shakl yaratishga ham kirishdi. Natijada Muqimiy lirikasining tili xalqqa yaqinlashdi. Uslubi aniq va sodda tasvir vositalari esa hayotiy va konkret bo'la boradi. Shubhasiz, Muqimiy o'z lirikasida eski adabiy uslubdan, uning dabdabali tasvir

vositalaridan batamom qutuldi, deb bo'lmadi. Muqimiy poeziyasida traditsion obrazlarning ko'pgina elementlari uchraydi. Lekin demokrat shoir Muqimiy lirikasi uchun harakterli va tipik hususiyat undagi hayotiylik va realizimdir.

Muqimiyning masnaviy janrida yaratgan hajviyalari

Muqimiy boshqa janrlar kabi masnaviy janridan ham unumli foydalandi. Ayniqsa u hajviyalarida ushbu janrdan foydalanganini ko'rishimiz mumkin. Masalan shoirning bir qancha hajviyalar: "Ta'rifi pech", "Hajvi xalifai Mingtepa", "Dar mazammati qurbaqa", "Voqelai ko'r Ashurboy hoji" kabi hajviyalari masnaviy janrida yaratilgan. Bu masnaviylar asosan *a-a, b-a, v-a, g-a, d-a* tarzida qofiyalangan. Misol tariqasida uning quyidagi "Ta'rifi pech" hajviyasini keltirsak:

Sovuq qayda ekan oromijon pech,
Degaykim ba'zi nodonlar: yomon pech.

Eshikdin qaltirab kelsang isitgay,
Ki mushfiq volidangdin mehribon pech.

Sovuq dushman bo'lib ura shaboxun,
Qilurg'a daf'i u sohibqiron pech.

Zimiston faslida qursang uyingga
O'zi tanho qochurg'ay qahramon pech.

Kelur na sandali to'gri, na gulxan,
Chiqorg'onin, Muqim, etgay omon pech.

Muqimiyning masnaviy janrida yaratilgan yana bir hajviyasi "Voqelai ko'r Ashurboy hoji" asaridir. Bu asari matni Muqimiy hayot vaqtida 1903 yilning

boshlarida “Turkiston viloyati gazetisi” sahifasida “Xo’qandlik bir boyning sha’niga Muqimiy shoirning aytqon she’ridur” (1903 yil 15 yanvar) sarlavhasi ostida bosilib chiqdi. Demak bu satira Muqimiyning so’nggi asarlaridan biri bo’lib, u aniq bir shaxsga—“xo’qandlik bir boy”ga qarshi qaratilganki, bu hol satiraning ahamiyatini belgilashga yordam beradi.

Masnaviy shaklidagi bu satira syujetli asar bo’lib, unda hajga borib, el ko’zida “tabarruk” bo’lib olgan ko’r Ashurboy yoki hoji Ashurboyning kirdikorlari fosh etiladi. Asar quyidagi tarzda boshlanadi:

Ajab xalq ekanmiz, ajab ro’zg’or,
Qiziq hodisa, turfa layl-u nahor.

Ashurboydin eshiting qissaye,
Ayo, ey bu Farg’onada nomdor.

Qorovul uyidin yarim oqshomi,
Banogoh bo’ldi fig’on oshkor.

Mahalla bu hangomadin uyg’onib,
Eshigiga keldi, sag’ir-u kibor.

Satira syujetidan ma’lum bo’lishicha boy ahloqan buzuvchi bo’lib qo’shnisining qizi uyiga kechasi bostirib keladi, lekin shovqin-suron ko’tarilgach qochib qoladi. Odamlar uni qo’lga tushiradilar, sharmandasi chiqqan hojini mahkamaga, undan qozixonaga olib boradilar. Lekin mahkama ma’murlari ham, qozixona kattalari ham “boyning obro’si”ni tushirmaslik uchun ishni bosti-bosti qilib yuboradilar. Bu adolatsizlikning ichki siridan yaxshi xabardor bo’lgan shoir o’z satirasini quyidagi misralar bilan tugatadi:

Haqorot qilingan kishilar qolib,
Topib boy so’zi bunda zo’r e’tibor,

Qachon kambag'alning so'zi o'tar
Agar bo'lsa aqchang,so'zing zulfiqor

Nihoni sochib siymu zar suv kabi
Bosildi mashaqqat bilan bu g'ubor...

Haloyiqg'a qilmas edi ixtilot,
Agar ta'bida bo'lsa nomusu or.

Mana ko'rib o'tganimizdek Muqimiy masnaviy shaklida ham barakali ijod qilib hajviyalar yaratgan.U hajviyalarini xalqqa tushunarli bo'lish uchun, hamda masnaviy janrining imkoniyatlari ko'pligi uchun ushbu janrda ijod qilgan desak also xato bo'lmaydi.

Muqimiyning “Sayohatnoma ” janri

O'zbek demokratik adabiyotida ma'lum g'oyaviy va badiiy xususiyatlarga ega bo'lgan “Sayohatnoma ” janrini boshlab beruvchi Muqimiy bo'ldi.Muqimiy turli mashrut bilan turoli vaqtlarda qilgan sayohatlari taaassurotlarini tasvirlab uchta “Sayohatnoma ” yozdi.Muqimiy yaratgan “sayohatnoma” lari o'sha vaqtlarda xalq orasida keng tarqalgan va shuhrat qozongan bo'lib,hozirgacha ham yashab kelmoqda,og'izdan – og'izga o'tib naql qilinmoqda.Uning bir necha varianti yozib olingan.

Muqimiy “Sayohatnoma” lari uch nom bilan yuritilsa ham, bir butun badiiy asar deb qaraladi. Chunki ularning g'oyaviy yo'nalishi bir xil bo'lib, hammasida ham shoir bir maqsadni- turmushdagi kuzatishlarni bayon etishni nazarda tutadi.Asarning kompozitsion qurilishi, badiiy xususiyatlari hamma o'rinda mana shu maqsadni amalgam oshirish uchun xizmat qiladi.Shuning uchun ham bu uch “Sayohatnoma”ning har biri bir badiiy asarning uzviy qismlaridir.

Keyingi vaqtlarda topilgan “Usfara sayohati” dagi parchalarni ham qo’shsak, “Sayohatnoma” lar 244 misradan iborat bo’ladi. Bu “sayohatnoma” lar bilan bog’liq bo’lgan muhim masalalar asosan quyidagilardan iboratdir:

- a) shoir obrazining aks etishi;
- b) b) hokim guruhlarining fosh etilishi;
- c) v) tabiat manzarasi tasviri.

“Sayohatnoma” larda shoir o’z sayohati estaliklaridan bahs etasr ekan, u turmush hodisalari haqidagi taassurotlarini, ularning o’z kayfiyatita’siri va buning natijasi o’zida tug’ilgan ruhiy kechinmalarni ,his-tuyg’ularni,o’y-hayollarni aks ettiradi.”Sayohatnoma”larning turli o’rinlarida Muqimiy o’z kayfiyati, kechinmalari to’g’risida so’zlaganda, o’zining “ma’yus”,”ko’ngli mahzun” ekanligini “majnunsifat”,”devonavash” tabiatini ta’kidlaydi:

Mayus bordim “Zohidon”,
Bir ko’cha ketgancha do’kon,
Sho’x odami ichmay piyon,
Mast, otasi bezor ekan.

Yoki:

Chun shahridin chiqdim “Kudash”
Ko’ngul bo’lib mahzuni g’ash ,
Majnunsifat,devonavash,
Serchashmayu kam chang ekan.

Ma’yus chiqdim “Isfara”,
Dil xasta, majruhi yara ,
Issiqda kuygan qop-qora,
Olti jihat ko’xsor ekan

“Sayohatnoma”lar tanqidiy realism adabiyotining muhim namunalaridan biri bo’lib, unda hokim guruhlarga mansub bo’lgan amaldorlar,mingboshilar,bo’lis boshliqlari va boshqalar kuchli tanqid ostiga olinadi.Muqimiy “Sayohatnoma”larda hajvigo’ylik iste’dodini ishga solib, mingboshilar, qozilar, boylar va boshqa “yurt katta” lari haqida kuchli misralar yaratadi:

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi: bedonishi,
Bir “qo’shtegirmonlik” kishi,
Hoji Iso badkor ekan.

Mag’rur, hasisu beshu kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Tagjoy olur mahovdan ham,
Hoji o’zi murdor ekan.

Do’rmoncha qishlog’ining hokimi ham yaramas fe’l –atvori bilan Hoji Isodan qolishmaydi. Shuning uchun ham muqimiy tanqididan omon qolmaydi. Do’rmoncha volost hokimi bo’lib turgan G’ozi ismli kishi zolimlik bilan shuhrat qozongqan, el-yurt nafratiga uchragan edi:

Unda bo’lis G’ozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi dedi,
Qilgan ishi ozor ekan.

Muqimiyning amaldorlarni bunday xasis qilib ko’rsatishi tasodifiy emas edi. Xalq naqlariga qaraganda, ilgari qishloqlarga, volostlarga hokim tayinlanganda, katta amaldorlar yangi bo’lgan amaldorlarga qarab: “Mana endi qishloq seniki bo’ldi, uni so’rab yota ber!” der ekanlar. “Sayohatnoma”dagi tanqidiy bandlar uning satiric xarakterini ko’rsatadi. “Sayohatnoma” da go’zal tabiat manzaralarini tasvirlashga ham o’rin berilgan:

Anhoru soyu cho’llari,
O’ynob kelodur suvlari,
Shirinki zardolulari,
Qandu asal bekor ekan.

Shu kabi tasvirlarni juda ko’plab uchratishimiz mumkin.

Xulosa

Muqimiy adabiyot tariximizning ma'lum bosqichini tashkil qiladi. Uning hayoti va ijtimoiy faoliyati XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga kelib, takomillashib brogan o'zbek demokratik adabiyoti bilan chambarchas bog'liqdir.

Muqimiy go'zal she'rlar, hajviyalar yaratishda she'riy janrlardan to'g'ri va unumli foydalana oldi. U har bir janrning qofiyalanish tartibi, vazn xususiyatlari, she'riy san'atlarini o'z o'rnida qo'llagan. Shuning uchun ham uning she'rlari xalqqa yaqin, xalq hayotini aks ettiradi. Muqimiyning o'lmas me'rosi aynan shu xususiyatlariga qarab ham bizning bugungi kunimizgacha o'zining badiiy qimmatini va poetic jozibasini yo'qotmagani holda orginalligicha saqlanib turibdi.

Xulosa qilib shuni aytish keraki, Muqimiy o'z ijodiy faoliyati bilan navator shoir sifatida maydonga chiqqan. Adib ijodi o'zining butun kuchli va zaif tamonlari bilan XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi tarixiy davr yetishtirgan katta adabiy va ijtimoiy hodisadir. Har qanday ijtimoiy hodisa kabi, u ham qarama-qarshi xususiyatlarga ega. Chunki u ijodi da xalq hayotini butun to'laligi, chuqurligi va murakkabligi bilan aks ettirgan zo'r talant egasi edi. Muqimiy ijodining muhim fazilatlaridan biri uning o'z uslubi va umumiy ruhi bilan xalqqa juda yaqin bo'lishi xalq ma'naviy hayotiga singib ketganligidadir. Muqimiy oddiy xalq ichidan chiqdi, xalq uchun yozdi, uning asarlari xalqqa manzur bo'ldi va e'zozlandi. Muqimiy haqiqiy xalq shoiridir, uning g'azallarida, nafaqat g'azallarida balki, uning masnaviy shaklidagi hajviyalarida, muxammaslarida, murabbalarida umuminsoniy tuyg'ular azaliy mavzular bilan birgalikda o'z davrini, shu davrda yashayotgan odamlarning katta - kichik muommolarini badiiy adabiyotning masalasiga aylantira bildi. Shu tariqa, adabiyot xalq va uning hayotiga yaqinlashdi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Muqimiy ijodi o'lka hayotida XIX asrning adog'ida yuz bergan bir qator o'zgarishlarni o'zida aks ettirdi. Zavod-fabrikalar

tashkil topishi, ishchilar sinfining maydonga kelishi, tili, dini, xulqi, fe'li biznikidan keskin farq qiluvchi rossiyaliklarning Turkistonga kirib kelishi va buning mahalliy xalq turmushiga qilgan ta'siri ilk marta Muqimiy ijodida o'z aksini topdi.

Muqimiy yangilana boshlagan o'zbek adabiyotining mavzu va mazmunigagina emas, ifoda yo'siniga ham yangiliklar kiritdi. O'zbek she'riyatini xalqning so'zlashuv tiliga yaqinlashtirdi. Hayotda ro'y berayotgan hodisalarga befarq bo'lmagani uchun ham hajvga e'tibor berdi. Ijtimoiy fikrni o'stirishga, jamiyat va shaxslardagi turli illatlarni tanqid qilishga diqqat qaratdi. Milliy hayotimiz manzarasi chizilgan sayohatnomani mustaqil janr darajasiga ko'tardi.

Xullas, Muqimiyning ijodi ko'p asrlik o'zbek adabiyotining tamomila yangi bosqichga kirganini, u oddiy kishilar turmushiga bevosita aralasha boshlaganini ko'rsatadi. Uning lirik g'azallari, murabba va muxammaslaridaghi tabiat go'zalligi, insoniy tuyg'ularning rang-barangligidan zavq-shavq olsalar, hajviy, yumoristik asarlari va "Sayohatnoma" lari orqali shoirning ijtimoiy-tarixiy voqelikka faol munosabatini anglab yetadilar. Muqimiy umuminsoniy tuyg'ular, azaliy mavzular bilan birgalikda o'z davrini, shu davrda yashayotgan odamlarning katta-kichik muammolarini badiiy adabiyotning masalasiga aylantira bildi. Shu tariqa, adabiyot xalq va uning hayotiga yaqinlashdi. Muqimiy hajviyalari kitobxonni zeriktirib qo'ymaydi. U goh kuldiradi, gohida esa chuqur o'yga toldirib qo'yadi. Uning hajviyalari qahramonlari bizning davrimizda ham yo'q emas albatta. Muqimiy hajviyalari orqali xalqning qalbiga tez kira bildi. Uning soda, hamma uchun tushunarli hajviyalarda real turmushdan olingan voqealar aks ettirilgan. Shoirning qo'lida kulgu qo'pol qah-qaha yoki shunchaki xushchaqchqlik, bachkana mutoyiba emas, balki hayotdagi qoloq taraqqiyotiga to'siq g'ovlarni shaxslar ongi va tabiatidagi ojizlik va salbiy belgilarni xunuk fe'l-atvor va o'rinsiz hatti-harakatlarni qoralash, tanbeh berish, ogohlantirish vazifasini o'taydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy. Tanlangan asarlar G'afur G'ulom nashriyoti, Toshkent-1953 yil.
2. G'.K. Karimov "O'zbek adabiyoti tarixi" 3-kitob, Toshkent "O'qituvchi" 1987 yil.
3. "Ma'naviyat yulduzlari". Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti. Toshkent 2001 yil
4. Begali Qosimov, Sharif Yusupov, Ulug'bek Dolimov, SHuhrat Rizayev, Sunnat Ahmedov. "Milliy uyg'nish davri o'zbek adabiyoti" Toshkent "Ma'naviyat" 2004 yil.
5. N. Karimov, B. Nazarov, U. Normatov, Q. Yo'ldoshev "Adabiyot" darslik majmua. Toshkent "O'qituvchi" 2004 yil.
6. Muqimiy. Saylanma, Toshkent "Ma'naviyat" 2009 yil.